



TO'QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATI KORXONALARIDA QAYTA
TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI JORIY ETISH ORQALI "YASHIL
ENERGIYA" DAN FOYDALANISH YO'NALISHIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR

doi: https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a69

Ahrorov Jamshid Amrillo o'g'li -
"O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi

Departament bosh mutaxassisi

Sharofiddinov Shohrux Ulug'bek o'g'li -

Alikulova Muqaddas Shuxrat qizi -

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mualliflar "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi tomonidan to'qimachilik sanoati korxonalarida energiya sarfi hajmini kamaytirish, atrof-muhitga salbiy ta'sir yetkazilishining oldini olish va kafolatlangan energiya manbalariga ega bo'lish maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish orqali "yashil energiya" dan foydalananish ko'lamini kengaytirish bo'yicha sohada amalga oshirilayotgan yangiliklar to'grisida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: to'qimachilik, qayta tiklanuchi enegiya, qayta tiklanmaydigan energiya, yashil energiya, sanoat mahsulotlari, quyosh panellari, gaz.

**РАБОТАЕТ В НАПРАВЛЕНИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ «ЗЕЛЕНОЙ ЭНЕРГИИ» ЗА СЧЕТ ВНЕДРЕНИЯ
ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ТЕКСТИЛЬНОЙ И
ШВЕЙНО-ТРИКОТАЖНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

Ahrorov Djksamida Amrillo ugli -

Главный специалист отдела ассоциации «Узтекималиксаноат»

Sharofiddinov Shahrukh Ulugbek ugli -

Alikulova Mukaddas Shukhrat kizi -

Магистры Ташкентского государственного

экономического университета

Аннотация. В данной статье авторы рассуждают о нововведениях, реализуемых ассоциацией "Узтекстильпром" в области расширения масштабов использования "зеленой энергии" за счет широкого внедрения возобновляемых источников энергии с целью снижения объемов энергопотребления на предприятиях текстильной промышленности, предотвращения негативного воздействия на окружающую среду и получения гарантированных источников энергии.

Ключевые слова: текстиль, возобновляемая энергия, невозобновляемая энергия, зеленая энергия, промышленная продукция, солнечные панели, газ.

**WORKS TOWARDS THE USE OF "GREEN ENERGY" THROUGH THE INTRODUCTION OF
RENEWABLE ENERGY SOURCES AT THE ENTERPRISES OF THE TEXTILE AND
CLOTHING AND KNITWEAR INDUSTRIES**

Ahrorov Jamshid Amrillo coals -

Chief Specialist of the Department of
the Association "Uztokimaliksanoat"

Sharofiddinov Shahrukh Ulugbek ugli -

Alikulov Mukaddas Shukhrat kizi -

Masters of Tashkent State University of Economics

Abstract. In this article, the authors discuss the innovations implemented by the Uzbekistan textile industry governing association in the field of expanding the use of "green energy" through the widespread introduction of renewable energy sources in order to reduce energy consumption in the textile industry, prevent negative environmental impacts and obtain guaranteed sources of energy .

Key words: Textiles, renewable energy, non-renewable energy, green energy, industrial products, solar panels, gas.

Kirish. Bugungi kunda respublika hududlari bo'ylab energiya ta'monoti bilan bog'liq muammolar yuzaga kelayotgan bo'lib, ayniqsa, 2022-yil 1-dekabrda havo haroratining keskin sovib ketishi natisida vaziyat yanada keskinlashdi. Ushbu holatning yuzaga kelishida asosiy sabablardan biri sifatida so'nggi yillarda respublikada energiya iste'moli va

uni ishlab chiqarish o'rtaсидаги farqning sezilarli darrajada ortib ketganligini alohida ta'kidlashimiz lozim. Oxirgi olti yilda ahollimiz 13 foizga, sanoat korxonalari esa 2 barobarga ortib, 45 mingdan 100 mingtaga ko'paydi. Natijada elektr energiyasiga talab kamida 35 foiz oshdi va yildan yilga ko'payib bormoqda. Bu haqda Prezidentimiz Oliy Majlisiga

Murojaatnomasida alohida ta'kidladi. Shuningdek, respublika iqtisodiyotining yirik tarmoqlaridan biri bo'lgan to'qimachilik sanoatida 2022-yilda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2017-yilga nisbatan 3,1 barobarga o'sishi natijasida elektr energiyasi iste'moli 2,5 barobarga, tabiiy gaz iste'moli esa 2,6 barobarga ortgan.

Kelgusi yilda yana 4,5 ming megavattli 11 ta yirik loyihami yakuniga yetkazamiz. Jumladan, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida barpo etiladigan quyosh va shamol elektr stansiyalari hisobidan qo'shimcha 14 milliard kilovatt elektr ishlab chiqarildi. Bu orqali xonardonlarga beriladigan elektr energiyasi 50 foizga ko'payadi[13].

Mamlakatimiz ichki resurslaridan samarali foydalangani holda o'zining ichki ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan sanoqli mamlakatlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'zaro bog'liq energiya tizimining yarmidan oshiqrog'iga egalik qiladi. Energiya resurslarini tejash, ulardan oqilona hamda samarali foydalanish bo'yicha ham soha korxonalar tomonidan tizimli ravishda ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, 2017-2022-yillarda to'qimachilik sohasida amalga oshirilgan investitsiya loyihamalarida yangi turdag'i zamонави и energiya tejamkor texnologiyalar o'rnatilishi hamda korxonalarda mavjud bo'lgan eski turdag'i dastgohlar modernizatsiya qilinishi natijasida 2022-yilga kelib, sohada mahsulot birligida energiya resurslari sarfining ulushi 2017-yilga nisbatan 23,5 foizga kamayishiga erishildi.

Shu bilan birga, uyushma tomonidan sohanning energiya sarfi hajmini kamaytirish, atrof-muhitga salbiy ta'sir yetkazilishining oldini olish va kafolatlangan energiya manbalariga ega bo'lish maqsadida "yashil" energiyadan foydalanish, ya'ni


energiyaning qayta tiklanuvchi manbalarini keng joriy etish bo'yicha xorijiy hamkorlar bilan yangi loyiha ustida ish olib borilmoqda. Bunda dastlabki bosqichda yirik korxonalar bino-inshootlarining 1,0 mln. kv m tom yuzalariga 50 MVt quyosh panellarini o'rnatish ko'zda tutilgan. Natijada ushbu korxonalar tomonidan jami energiya iste'molining 5 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan qoplanshi ko'zda tutilgan bo'lib, kelgusida ushbu ko'rsat-kichni 20 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'laligicha ishga solinmaganligi tufayli ular bo'yicha hududiy manzilli dasturlar ishlab chiqilmoqda. Olimlar O.U.Salimov, Sh.J.Imomov, I.R.Nuritov, K.E.Usmonov fikricha, O'zbekistonda muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlari katta bo'lib, respublikamizda yilning asosiy qismi (276-300 kun) quyoshli bo'lganligidan unumli foydalanishimiz zarur[1].

Akademik S.A.Azimov nomidagi «Fizika-quyosh» IIChB materialshunoslik instituti ma'lumotlariga ko'ra, uning quvvati 50 trillion 973 million tonna shartli yoqilg'iga teng bo'lib, mamlakatimizda aniqlangan jami energiya zaxiralariga nisbatan ancha ko'pligini ko'rish mumkin. Mamlakatimizning tabiiy sharoiti quyosh va shamol energetikasidan birgalikda foydalanish uchun qulay [2].

Professor B.A.Shoimkulov ta'kidlashicha, O'zbekistonda ishlab chiqariladigan elektr energiyasini 35,8 % sanoat, 9 % transport, 6 % qishloq xo'jaligi, 37,8 % aholi va 14,8 % kommunal xo'jalik iste'mol qiladi [3]. Quyidagi diagrammada dunyo miqyosida ishlab chiqarilayotgan energiyaning asosiy manbalarini bilan tanishishimiz mumkin.



1-rasm. Dunyo miqyosida ishlab chiqarilayotgan energiyaning asosiy manbalari

Lekin yoqilg'i-energiya resurslariga bo'lgan talab ortib boraveradi va jahondagi iqtisodiy rivojanish bois 2030-yilga borib elektr energiyasiga bo'lgan talab asr boshidagiga nisbatan 5 % oshadi

va bu boradagi ehtiyoj 23,3 milliard tonna shartli yoqilg'inini tashkil qilishi mumkin.

Tabiiy yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish natijasida dunyoda har yili atrof-muhitga 200 mln. tonnaga yaqin qattiq zarrachalar, 200 mln.

tonna oltingugurt gazi, 700 mln. tonna uglerod oksidlari va 150 mln. tonna azot oksidlari chiqarib tashlanmoqda. Buning natijasida tabiatda turli xildagi iqlim o'zgarishlari sodir bo'lishi va atmosfera havosining keskin ifloslanishiga olib kelmoqda[2].

T.Majidovning tahlillarida bugungi kunda respublikamizda ishlab chiqarilayotgan elektroenergianing 98,7 %i organik yoqilg'illardan foydalana-digan issiqlik elektrostansiylarida ishlab chiqariladi. Umumiy ishlab chiqariladigan energiyaga nisbatan atigi 1,3 % elektroenergiya gidroelektrostansiya (GES)lar yordamida ishlab chiqariladi [4].

M.T.Normurodov o'zining maqolasida shunday yozadi: "Yurtimiz iqlim sharoitida quyosh, shammol, biogaz singari noan'anaviy energiya manbalidan foydalanishning ulkan imkoniyatlari mavjud. Aytaylik, respublikamiz hududida yilning aksariyat kunlari quyoshlidir. Bunday tabiiy sharoit jahon miqyosida tobora ommavylashib borayotgan, yuqori samarali, qayta tiklanuvchi energiya manbalidan omilkorlik bilan foydalanishda juda qo'keladi" [5].

Nodir Jumayev O'zbekistonda aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji tobora o'sib borishiga, birinchi navbatda, ishlab chiqarish quvvatlari, transport-kommunikatsiya infratuzilmalari ko'paygani va shu sababli yangi ish o'rinnari yaratilayotgani, shunga monand ravishda, ko'plab energiya inshootlari barpo etilishi lozimligni ta'kidlaydi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida energiya manbalarini, shuningdek, sohaga tegishli qayta tiklanuchi energiya manbalarini bo'yicha ilmiy ish olib borgan yetakchi mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning asarlari hisoblanadi. Tadqiqotda nazariy mushohada, ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, mutlaq farq, matematik va statistik guruhlash kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Energetika tarmog'i davlatning muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli yaqin yillarda energetika tarmog'ini rivojlantirish uchun qabul qilingan qonun hujjatlarini misol keltirishimiz mumkin. Masalan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida bir qancha vazifalar ko'rsatib o'tilgan.

Xususan, iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzuksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish.

2026-yilga kelib, elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kVt. soatga oshirib, jami 100 milliard kVt. soatga yetkazish.

2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash.

O'zbekiston energetika tizimining qo'shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta'minlash.

Sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish. Uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish.

Elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bo'yicha choralarini ko'rish.

Iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqaradigan zararli gazlar hajmini bir birlilik Yalpi ichki mahsulot hisobida 10 foizga qisqartirish[3].

Shuningdek, Prezidentimizning 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ham bir qancha muhim vazifalar belgilab berilgan:

issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish;

sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;

yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish[14].

Shuningdek, qarorga asosan sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash konsepsiysi ham ishlab chiqarilgan bo'lib, quyidagi asosiy maqsadlar belgilab olingan:

sanoat tarmoqlarida 3,9 mlrd. metr kub tabiiy gaz, 4 mlrd. kVt/soat elektr energiyasi va 21 ming tonna neft mahsulotlarini tejash orqali energiya si-g'imini 20 foizga, shu jumladan, 2022-yilda 5 foizga kamaytirish;

bino va inshootlarda energiya samaradorligini 30 foizga oshirish;

har bir tarmoq kesimida resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish va energiya tejamkorligi dasturlarini ishlab chiqish;

chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etishni rag'baltantrish mexanizmlarini joriy etish.

Iqtisodiyot tarmoqlari va faoliyat turlari bo'yicha iqtisodiyotning energiya sarfi (energiya sig'imi) 2026-yilga borib 22 foizga kamaytiriladi.

SANOAT IQTISODIYOTI

Quyidagi 1-jadval orqali 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishni

ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar bilan tanishimiz mumkin.

1-jadval

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'lchov birligi | 2022-yil | 2024-yil | 2026-yil | 2028-yil | 2030-yil |
|-----|---|-----------------|----------|----------|----------|----------|----------|
| 1. | Yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya hajmini kamaytirish (<i>2021-yilga nisbatan</i>) | % | 5,0 | 14,0 | 22,0 | 27,0 | 30,0 |
| 2. | Sanoatda elektr energiyasi iste'moli, umumiy iste'moldagi ulushi | % | 26,0 | 25,0 | 23,0 | 21,0 | 20,0 |
| 3. | Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushini kengaytirish (<i>gidroenergetika bilan birga</i>) | % | 8,0 | 9,0 | 24,3 | 29,0 | 30,5 |
| | | kVt/s | 6,5 | 8,6 | 25,0 | 34,0 | 40,7 |
| 4. | Kichik quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish | MVt | 10,0 | 150,0 | 400,0 | 800,0 | 1500,0 |

Prezidentimiz joriy yil 1-3-fevral kunlari vodiya tashrifi davomida respublikada 3,1 milliard kilovatt soat (vodiya viloyatlarida 1,1 mlrd. kVt soat) elektr yetishmovchiligi yuzaga keldi. Jumladan, Andijonda – 384 million, Namanganda – 288 million, Farg'onada – 441 million kilovatt soat. Vodiya viloyatlarida 160 megavattli quyosh panellari va 100 ta mikro GESlar qurilishi va 1 iyulga qadar tadbirkorlar jalb qilinib, Andijonda 41 ta, Namanganda 32 ta va Farg'onada 27 ta mikro GES qurish boshlanishi aytib o'tildi.

Shuningdek, joriy yilda ijtimoiy soha obyektlarida «quyosh energiyasi»dan foydalanish uchun alohida kompaniya tashkil etilishi va unga 200 mil-

lion dollar mablag' berilishi, kompaniya quyosh panellari va suv isitish qurilmalarini o'zi o'rnatishi, shu orqali «yashil energiya»ni byudjet korxonasiga sotish imkoniyati paydo bo'lishi mumkin. Kichik quyosh panelidan olinadigan 1 kilovatt-soat elektr energiya tannarxi o'rtacha 450 so'm, byudjet tashkilotiga 800 so'mga sotish mumkin[15].

Endi to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatiga keladigan bo'lsak, 2022-yilda soha korxonalar tomonidan umumiy qiymati 79,9 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'sish sur'atlari 118,4 foizga yetdi, bu respublikan YalMning **8,9 foizini** tashkil qildi.

2-jadval

Soha korxonalarida asosiy mahsulot turlari uchun energiya resurslari sarfi to'g'risida solishtirma ma'lumot

| T/r | Korxona nomi | Mahsulot nomi | Elektr energiya (kWt.s) | Tabiiy gaz (m3) |
|-----|--------------------------------|------------------------------------|-------------------------|-----------------|
| 1. | "FT Textile Group" MCHJ | Ip kalava | 2,0 | |
| | "Elite Stars Textile" MCHJ | | 5,0 | |
| | "BO'STON OPTIMAL TEKSTIL" MCHJ | | 1,3 | |
| | ASAKATEKSTIL MCHJ | | 1,9 | |
| 2. | OSTEKS KOLOR MCHJ | Bo'yagan ip kalava | 2,15 | 0,7 |
| | BO'STON OPTIMAL TEKSTIL MCHJ | | 1,9 | 0,9 |
| 3. | KAMALAK SHABNAM MCHJ | Gazlama mato | 0,7 | 0,07 |
| | BO'STON MEGA TEKSTIL MCHJ | | 0,6 | 0,08 |
| | TSK MCHJ | | 0,3 | |
| 4. | TSKMCHJ | Bo'yagan gazlama mato | 0,3 | 0,3 |
| | BO'STON MEGA TEKSTIL MCHJ | | 0,5 | 0,8 |
| 5. | ASAKA TEKSTIL MCHJ | Trikotaj mato | 1,8 | |
| | NIL GRANIT MCHJ | | 2,0 | |
| 6. | ASAKATEKSTIL MCHJ | Bo'yagan trikotaj mato | 2,3 | 1,5 |
| | JADA KOLOR TEKSTIL MCHJ | | 2,0 | 1,8 |
| 7. | ASAKATEKSTIL MCHJ | Tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari | 1,0 | |
| | BETLIS TEKSTIL MCHJ | | 0,16 | |
| | FORTUNA ELEGANT MCHJ | | 0,13 | |
| | "ISTIQLOL TEXTILE DIZAYN" MCHJ | | 0,5 | |
| 8. | "ISNUR QUTLAN TEKSTIL" MCHJ | Tayyor paypoq mahsulotlari | 0,12 | |
| | "AHMAD ISROIL TEX" MCHJ | | 0,15 | |
| | "URGUT SOCKS TEXTILE" MCHJ | | 0,10 | |

SANOAT IQTISODIYOTI

O'tgan yillar mobaynida eksport hajm va miqdor jihatdan oshib, 3,2 mldr. dollarga yetdi va 70 dan ortiq davlatlarga eksport qilindi. Shuningdek, 2022-yil 10-mart kuni **Cotton Campaign** xal-qaro koalitsiyasi tomonidan O'zbekiston paxtasiga e'lon qilingan global boykot bekor qilindi. Bu, o'z navbatida, Yevropa va AQSh bozorlariga keng yo'l ochadi. Endi sohani yanada rivojlantirish uchun uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash juda dolzarb masala hisoblanadi.

Quyidagi 2-jadval asosida soha korxonalarida asosiy mahsulot turlari uchun energiya resurslari sarfi to'g'risida solishtirma ma'lumot olishimiz mumkin.

2017-yil va 2021-yillar mobaynida to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarining energoresurslarga bo'lgan ehtiyoji bo'yicha tahliliy ma'lumot bilan tanishamiz.

3-jadval

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarish uchun sarf bo'layotgan energiya manbalari

| Nº | Ko'rsatkich nomi | O'Ichov birligi | 2017-yil | 2021-yil |
|----|--|-----------------|-------------|-------------|
| 1. | Ishlab chiqarish hajmi | trln. so'm | 22,8 | 64,8 |
| 2. | (solishtirma narxlarda) | ming kVt s | 1 904 731,0 | 4 496 676,8 |
| 3. | Elektr energiyasi | ming m3 | 173 852,5 | 424 158,1 |
| 4. | Tabiiy gaz | kVt | 83 540,8 | 69 393,2 |
| 5. | 1,0 mldr. so'mlik mahsulot uchun elektr energiyasi sarfi | m3 | 7 625,1 | 6 545,7 |

So'nggi yillarda ishlab chiqarish hajmi deyarli uch barobar oshganligini ko'rishimiz mumkin, shu bilan birga, bu jarayon ko'proq energiya talab qilishi

hech kimga sir emas va elektr energiyasiga bo'lgan talab ham uch barobar oshganligini 3-jadvaldan ham bilishimiz mumkin.

4-jadval

To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarining energoresurslarga bo'lgan ehtiyoji bo'yicha

| T/r | Mahsulotlar nomi | O'Ichov birligi | Elektro-energiya (kVt) | Tabiiy gaz (m ³) |
|-----|-----------------------------|-----------------|------------------------|------------------------------|
| 1. | Ip kalava | 1 kg | 3,00 | |
| 2. | Bo'yalgan ip kalava | 1 kg | 1,00 | 0,70 |
| 3. | Ip gazlama | 1 kv.m. | 1,00 | 0,40 |
| 4. | Bo'yalgan ip gazlama | 1 kv.m. | 1,00 | 0,60 |
| 5. | Trikotaj mato | 1 kg | 1,50 | |
| 6. | Bo'yalgan trikotaj mato | 1 kg | 1,00 | 0,80 |
| 7. | Tikuv-trikotaj mahsulotlari | 1 dona | 0,30 | |
| 8. | Paypoq mahsulotlari | 1 juft | 0,10 | |

Yuqorida jadvalda sohaning tarmoqlari bo'yicha bir birlik mahsulot hajmiga qancha energiya sarf bo'lishini bilishimiz mumkin. Mahsulot hajmi oshgani sari energiya resurslariga bo'lgan talab ham oshadi. Lekin haroratning keskin pasayishi tufayli ko'plab mamlakatlarni qamrab olgan energetika inqirozi O'zbekistonda ham kuzatildi. Mavjud fors-major vaziyat mamlakat rahbariyatini, birinchi navbatda, mamlakat aholisiga energiyani yetkazib berish, ularning normal hayot faoliyatini ta'minlashga yo'naltirdi. Issiqlik elektr stansiyalariga yuklanishning oldini olish maqsadida respublika korxonalari, jumladan, to'qimachilik sanoati korxonalari faoliyatini vaqtincha to'xtatildi. Bu holat tuzilgan shartnomalar bo'yicha mahsulotlarni yetkazib berish muddatiga ta'sir qildi va 2022-yil dekabr va 2023-yil yanvar oyalaridagi energiya inqirozi tufayli 622,5 mldr. so'mlik mahsulot yo'qtildi. Shu kabi vaziyatlarning

oldini olish maqsadida "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi tomonidan to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish orqali "yashil energiya"dan foydalanishni kengaytirish bo'yicha tizimli ravishda ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2023-yil 1-yanvar holatiga:

Uyushma binosida quvvati 20 kVt soat (umumiy iste'molning 25 foiziga teng);

"Sayyora Favvorasi" MChJda 200 kVt soat;

"Samarkand Apparel" MChJda 100 kVt soat;

"Zelal Tekstil" MChJda 100 kVt soat bo'lgan quyosh panellari o'rnatilib, ishga tushirildi.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoat korxonalari tomonidan 2022-yil yakuniga qadar jami **200 kVt soat** quvvatga ega quyosh panellarini o'rnatish rejasiga belgilangan bo'lib, amalda **420 kVt soat** quvvat o'rnatildi. Shu bilan birga, "Marjan Investment

Group" MChJ korxonasining maishiy issiq suv ta'mi-noti tajriba tariqasida quyosh suv isitish kollektorlari orqali yetkazib berish tizimiga o'tkazildi. 2023-2024-yillarda ham ushbu yo'nalishda ishlarni davom ettirish rejalashtirilgan. Jumladan, 2023-yilda 15 ta to'qimachilik korxonasida 800 kVt soatdan ortiq quvvatga ega umumiyligi 8,2 mlrd. so'mga teng quyosh panellari hamda 4 000 litr hajmdagi quyosh suv isitish qurilmalarini o'rnatish, 2024-yilda esa 20 ta to'qimachilik korxonasida 1 000 kVt soatdan ortiq quvvatga ega umumiyligi 10,2 mlrd. so'mga teng quyosh panellari hamda 6 000 litr hajmdagi quyosh suv isitish qurilmalarini o'rnatish ko'zda tutilgan. Shuningdek, yuqorida keltirilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori ijrosi yuzasidan uyushma tomonidan to'qimachilik sanoati korxonalarida energiya sarfi hajmini kamaytirish, atrof-muhitga salbiy ta'sir yetkazilishining oldini olish va kafolatlangan energiya manbalariga ega bo'lish maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish orqali "yashil energiya"dan foydalanish ko'lamenti kengaytirish bo'yicha xorijiy hamkorlar (Xitoyning "**Universal Energy**" va "**Bahai Solar Engineering**" kompaniyalari) bilan memorandum imzolanib, yangi loyiha ustida ishlar olib borilmoqda.

Bunda mazkur xorijiy hamkor kompaniyalar hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mablag'lari hisobidan yirik to'qimachilik korxonalarini bino-inshootlarining bo'sh turgan tom yuzalariga quyosh panellarini o'rnatib berish ko'zda tutilgan. Mazkur loyiha amalga oshirilishi natijasida ushbu korxonalar jami energiya iste'molining 5 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini hisobidan qoplanishi, yiliga 90 mln. kVt soatdan ortiq miqdordagi elektr energiyasini tejash va atrof-muhitga 45 ming tonnadan ortiq SO₂ (issiqxona gazlari) chiqarilishining oldini olish ko'zda tutilgan bo'lib, keyingi bosqichlarda ushbu ko'rsatkichni 20 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Ushbu loyiha doirasida, dastlabki bosqichda, "Khantex Group", "Nil-Granit", "Skorton Tekstil", "Jizzah-Toshtepa Textile", "Osborn Textile", "Fergana Global Textile", "Real Tex Tashkent", "Quva Tekstil", "Vobkent Tola Klaster", "Buxoro Agroklaster", "Qorako'l Kumush Kalava", "Namangan Toqimachi",

"SAFF Textile" kabi 30 ga yaqin yirik to'qimachilik korxonalarini bino-inshootlarining 1,0 mln. kv m tom yuzalariga quvvati 50 MVt ga teng quyosh panelarini o'rnatish rejalashtirilgan.

Xulosa va takliflar. Ishlab chiqaruvchi korxonalarining ishlab chiqarish jarayonini qayta tiklanuvchi energiya manbalarini bilan ta'minlash orqali elektr energiyasini ishlab chiqarishga sarflanadigan gaz, ko'mir, neft kabi qayta tiklanmaydigan resurslar sarfi kamayadi, shuningdek, atrof-muhitga chiqarilayotgan issiqxona gazlari chiqarilishining oldini olish maqsad qilinganini bilishimiz mumkin.

So'nggi paytlarda yurtimizda kuzatilayotgan energiya inqirozi sharoitida energetika sohasini ham davlat tasarrufidan chiqarish lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar, tashkilotlar bozor munosabatlarida ish yuritmasa, soha rivojlanishi sekinlashishi tabiiy holat. Shu nuqtayi nazardan soha ga investitsiya jalg qilish lozim. Neft-gaz va energetika tarmog'i korxonalariga e'tibor bersak, davlat ulushi maksimal darajada ekanligini ko'ramiz. Shu sababli soha korxonaları IPO o'tkazish, xalqimizni bo'sh turgan pul mablag'lari yoki chet el investitsiyasini jalg qilgan holdagina tarmoqni rivojlantirishimiz mumkin.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishga yo'naltirilgan loyihamar quvvatlaridan kelib chiqqan holda ularni moliyalashtirish uchun foizsiz va uzoq muddatli bo'lib-bo'lib to'lash asosida mablag'lar ajratish tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiq. Bunda:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bilan bog'liq xarajatlarni, o'rnatiladigan quvvatdan kelib chiqqan holda, 50-70 foiz qismini davlat tomonidan subsidiyalar ajratish orqali qoplab berish;

- 0,1 MVt va undan ortiq quvvatdagi energiyaning qayta tiklanuvchi manbalarini o'rnatgan yuridik shaxslarga 5 yil davomida elektr energiyasini o'zgarmas tariflarda yetkazib berishni kafolatlash ko'zda tutilishi zarur.

Soha korxonalarini tomonidan energiya tejochi zamonaliviy texnika va texnologiyalardan tizimli foydalanish lozim.

Yurtimizda shamol energiyasi bo'yicha ham tizimli ishlarni davom ettirish lozim bo'ladi. Quyosh panellarini yurtimizda ishlab chiqarish orqali narxi ni pasaytirish natijasida aholiga ko'proq yetkazib berish imkoniyati oshadi.

Manba va foydalanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6096-sonli "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni.
2. "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va barqaror atrof-muhit fizikasi" respublika ilmiy-tehnikaviy anjuman materiallari to'plami. - Qarshi, 2019-yil. 3-5-betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. www.lex.uz
4. Сибикин Ю.Д., Сибикин М.Ю. Нетрадиционные и возобновляемые источники энергии. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 232 с.

5. Shodimetov K. Muqobil energiya turlari – hayotga! – T.: SHARQ NMAK, 2011.
6. Duffie J., Beckman W. Solar engineering of thermal processes. – New York: Wiley, 1991. – 919 p.
7. Kenisarin M., Mahkamov Kh. Solar energy storage using phase change materials. // Renewable and Sustainable Energy Reviews. 2007. V-11
8. Қаҳхоров С.К., Самиев К.А., Жўраев Ҳ.О. Қуёш қурилмаларидағи жараёнларни моделлаштириш. Монография. – T.: ITA PRESS, 2014. – 208 б.
9. Qahhorov, Jo'rayev H.O., Jamilov Y.Y., Hamdamova N.M. – Buxoro: "Sadiddin Salim Buxoriy" Durdona, 2021. – 300 b.
10. <https://lex.uz/sayti/ma'lumotlari>.
11. "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi hisobotlari.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oly Majlisiga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi 2030-yilgacha "O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori www.lex.uz
14. <https://kun.uz/06382097>



SAMARQAND VILOYATIDA YONG'OQ ISHLAB CHIQARISH VA UNING SAMARADORLIGI MASALALARI

doi: https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a70

Avezov Humoyun Ilhomovich –
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyatida yong'oq ishlab chiqarish va uning samaradorligi masalalari haqida so'z yuritilgan. Bugungi kunda Samarqand viloyatida mavjud yong'oq plantasiyalari hamda samarali yer maydonlaridan unumli foydalanish va yong'oq yetishtirish, qayta ishslash va mahsulotlarning eksport hajmini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Samarqand viloyati, yong'oq ishlab chiqarish, samaradorlik, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot, sanoat, hosil, ishlab chiqarish, qayta ishslash, eksport.

ВОПРОСЫ ПРОИЗВОДСТВА ГРЕЦКОГО ОРЕХА И ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТИ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Avezov Humoyun Ilhomovich –
Ташкентский государственный экономический
университет, Самаркандинский филиал, докторант

Аннотация. В данной статье рассказывается о производстве грецкого ореха и его эффективности в Самаркандинской области. На сегодняшний день большое значение имеет эффективное использование имеющихся ореховых плантаций и продуктивных земельных площадей в Самаркандинской области и увеличение объемов выращивания, переработки и экспорта продукции грецкого ореха.

Ключевые слова: Самаркандинская область, ореховодство, эффективность, сельское хозяйство, экономика, промышленность, урожай, производство, переработка, экспорт.

ISSUES OF WALNUT PRODUCTION AND ITS EFFICIENCY IN SAMARKAND REGION

Avezov Humoyun Ilhomovich –
Samarkand branch Tashkent State
University of Economics, PhD student

Annotation. This article describes the production of walnuts and its effectiveness in the Samarkand region. Nowadays, the effective use of existing walnut plantations and productive land areas in the Samarkand region and an increase in the volume of cultivation, processing and export of walnut products is of great importance.

Key words: Samarkand region, walnut growing, efficiency, agriculture, economy, industry, harvest, production, processing, export.

Kirish. Mintaqadagi yong'oqchilik tarmog'i ko'plab yangi va quritilgan meva-sabzavot mahsulotlari bilan bir qatorda, asosan, eksportga yo'naltirilgan bo'lib, shu bois qishloq aholisining turmush farovonligini oshirishga hissa qo'shish imkoniyatiga ega. Milliy va mintaqaviy darajada yong'oq bozorining o'rni va ular faoliyatini rivojlantirish zaruratini

har tomonlama chuqur, mavjud manbalarni tahlil qilish asnosida o'rGANISH ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Yong'oq ishlab chiqarishning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini hamda bozor munosabatlarning rivojlanishi sharoitida qishloq hududlarida yong'oqzorlarni tashkil etish uslubiyatlarini o'rGANISHGA muhim hissa bo'lib qo'shiladi. Oziq-ovqat bo-